O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti rektori A. Sattarov
2024-yil "___" ___________

Ro'yxatga olindi: №
___________________
2024-yil "___"-avgust

# MUTAXASSISLIKKA KIRISH
# O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot |
| Ta'lim sohasi: | 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60310300– "Psixologiya" |

Termiz –2024

## FAN TO'G'RISIDA MA'LUMOT

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul kodi MTK1104 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 1 | | ECTS – Kreditlar 6 |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | | | Haftadagi dars soatlari 6 |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Mutaxassislikka kirish | 26 | 154 | 180 |

1

### I.FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** - Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni psixologning kasbiy faoliyatining mazmuni va qadriyatlari, oilada, yoshlar bilan ishlaganda, amaliy psixologiyada psixologning kasbiy kompetentligi va uning mezonlari, psixologiya fanining kasb sifatida tanishishdan iborat.

**Fanning vazifasi:**

- talabalarda bu soha bo'yicha qat'iy motivasiyani shakllantirish, ularning bilimlarini bir tizimga keltirish;
- talabalarda guruhlar orqali yangi pedagogik texnologiyalar orqali bilimlarni oshirish;
- talabalarni faol kasbga kirish va ma'lumotlardan foydalana olishga o'rgatish;
- mutaxassislikka kirishda ishlatiladigan asosiy yo'nalishlar haqida talabalarga ma'lumotlar berishdan iborat.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
### Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu: Psixologiya fani predmeti, vazifalari, ob`ekti va ahamiyati. Psixologlar bilimi, psixologiya rivojiga hissa qo`shgan ulug` olimlar**

Psixologiya fani predmeti, vazifalari, ob'ekti va ahamiyati. Psixologik bilimlar olami. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi. Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari. Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari. Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalari.

Andreeva G.M., Davletshin M.G., Zabrodin Yu.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D., 33 Snigireva T.V., Filippov A.V., Shixirev P.N., Shoumarov G'.B., Yadov V.A., G'oziev E.G'.; shaxs faolligi bilan bog'liq tadqiqotlarni Abulxanova-Slavskaya K.A., Anufriev E.A., Grimak L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A., Qodirov B.R., Lipkina A.I., Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L., Qodirov B.R.; ijtimoiy ustanovka



bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili Sh.A., Uznadze D.N

**2-mavzu: Psixologiya tarmoqlari, psixologiya fani rivojlanishning zamonaviy tendensiyasi**

Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari suradi. Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari. Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari. Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalari. Professorlar: E.G'oziev, L.Tursunov, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish zarurligi uqtiriladi.

**3-mavzu: Psixologiya kasb sifatida. Oilaga psixologik xizmatning zarurligi.**

Psixolog "mutaxassis" va "professional" sifatida. Psixologni kasbiy o'zini anglash xususiyatlari va uni rivojlantirishni shart-sharoitlari. Lisenziyaga ega mutaxassislarni attestasiyasi. Shaxsiy kasbiy faoliyat refleksiyasi. O'zini mutaxassis sifatida ko'rish ehtiyoji, o'zining mehnat faoliyatini samaradorligini mustaqil va xolis baholash. professional o'qitish birinchi bosqich sifatida. psixolog shaxsi amaliy psixologning kasbiy faoliyatini instrumenti sifatida.

Har qanday ijtimoiy guruh jumladan, oiladagi munosabatlar muayyan bosqichda yangicha qirralar kasb etadi. Masalan, deyarli xar bir oilada ota-ona va ulg'ayayotgan farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda anglashilmovchilik va ziddiyatlar ko'payib borishini kuzatish mumkin. Bir tarafda — nazorat qilishga o'rganib qolgan ota-ona, boshqa tarafda - hali hatti-harakati va qarorlari uchun ma'suliyatni to'liq his eta olmaydigan farzand turadi

**4-mavzu: Mashhur psixologik maktablar**

Z.Freyd va uning maktabi. V.Frankl va uning maktabi. E.Fromm va uning maktabi. M.Erikson va uning maktabi. A.Maslou va uning maktabi. L.S. Vigotskiy va uning maktabi. Bixeviorizmning vujudga kelishi, J.Uotson va boshqalar. Asotsionizm, gumanizm, kognitivizm nazariyalarini vujudga kelishi.

**5-mavzu: Psixologni tayyorlash bosqichlari. Psixologlar jamiyati va asosotsiatsiyasini shakllanishi, psixolog faoliyatini ko'rinishi va sohalari.**

Yevropalik olimlar boshqa mamlakatlarda psixologlarni tayyorlash tizimiga qiziqish bildirishni boshladilar va psixologlarni o'qitishning umumiy yondashuvlarini ishlab chiqishga harakat qildilar. Bunday ishlarning natijasi o'laroq, 1990- yilda Yevropa Psixologlar Uyushmalari Federatsiyasi psixologiya sohasida o'qitish uchun "Optimal standartlar" ni tasdiqladi.

Bugungi kunda amaliy psixologiya o'ziga xos rivijlanishni taqozo etar ekan, u albatta psixologik eksperimentlarning ilk qadamlari hamda turli mamlakatlarda rivojlangan taniqli assotsiatsiyalarning faoliyatiga tayanishi muqarrar. Bunday bog'liqlikni aynan Amerika psixologik assotsiatsiyasi yoki Rossiya psixologlari

jamiyati misolida yaqqol ko'rish mumkin. Amerika psixologlar uyushmasi (APA) - dunyoda professional psixologlar uyushmasi.

**6-мавзу: Kasbiy muhim sifatlar. Tibbiyot sohada psixologik yordam. Ta`lim tizimida psixologik faoliyat. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya**

Turli sohalarda faoliyat yuritar ekanmiz, albatta, kasbiy sifatlar psixologning kasbiy jarayonini to'ldirib turuvchi muhim jabha hisoblanadi. Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o'quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari zarur.

Sog'liqni saqlash tizimida psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti o'zining boy tarixiga ega. Mazkur xizmat o'z navbatida quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda.

Mehnat psixologiyasining birinchi vazifasi — kasb tanlashga yo'naltirish, konsultatsiya berish, kasbga layoqatli yoshlarni tanlash, hamda yoshlarda kasbiy kobiliyat va qiziqishni shakllantirishni o'rganish va tavsiflashdir.

**7-mavzu: Huquqiy sohada psixologik faoliyat. Sport sohasida psixologik ish**

Bugungi kunda barcha tizimlarda bo'lgani kabi ichki ishlar tizimida ham psixologik xizmat amaliyoti joriy qilingan. Bunda ichki ishlar idoralarida faoliyat yurituvchi xodimlarning ruhiy holati, individual xususiyatlari, stress holatiga moyillik darajalariga vaqti-vaqti bilan tashxis qo'yib boriladi. O'zbekistonda ham mazkur yo'nalish bo'yicha talaygina tajribalar to'plangan va mazkur ishlar maxsus belgilangan "Nizom" asosida tashkil etilganligini alohida qayd etish lozim

Mamalakatimizda o'nlab sport federatsiyalari, assotsiatsiyalari, davlat qo'mitalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

**8- mavzu: Shaxs psixologiyasi**

Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu ta'kid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan ibora bo'lib tuyuladi. Gap shundaki, bu o'rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarning rivojlantirilishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakl-shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko'rsatadi

**9- mavzu: Psixologiyaning kasbiy faoliyatida tadqiqot metodlari. Konsultativ psixologiya**

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning ma'lum darajada mumkin qadar ob'ektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. Metod – uslubning ma'nosi biror narsaga borish yo'li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G. Ananev mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikasiya qilgan.



Psixologik maslahat psixologik diagnostik jarayonga asoslanib, qat'iy ilmiy nuqtai nazardan, mijozning ruhiy holatini, bu holatning dinamikasini va mijozning psixologik gomeostaziyasini buzadigan zararli salbiy ruhiy holatlarni shakllantirishda ishtirok etadigan individual psixologik omillarni aniqlashga imkon beradi. Psixologik diagnostika maslahatchiga nafaqat mijozning shaxsiyatining zaif tomonlarini, uning zaif tomonlarini, balki psixologik ish jarayonida ishonish mumkin bo'lgan kuchli tomonlarini aniqlashga imkon beradi

**III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Psixologiya fani predmeti, vazifalari, ob`ekti va ahamiyati
2. Psixologlar bilimi
3. Mashhur psixologik maktablar
4. Psixologiya rivojiga hissa qo`shgan ulug` olimlar
5. Psixologiya tarmoqlari
6. Psixologiya fanining rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari
7. Psixologiya kasb sifatida
8. Oilaga psixologik xizmatning zarurligi
9. Garb mamlakatlari va MDHda mutaxassis psixologlarni tayyorlash sifatini oshirish jihatlari.
10. Psixologni tayyorlash bosqichlari
11. Psixologlar jamiyati va asosotsiatsiyasini shakllanishi
12. Psixolog faoliyatini ko'rinishi va sohalari
13. Kasbiy muhim sifatlar
14. Tibbiyot sohada psixologik yordam
15. Psixokorreksiya va psixoterapiya
16. Ta`lim tizimida psixologik faoliyat
17. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya
18. Huquqiy sohada psixologik faoliyat
19. Sport sohasida psixologik ish
20. Shaxs psixologiyasi
21. Psixologiyaning kasbiy faoliyatida tadqiqot metodlari
22. Konsultativ psixologiya
23. Ijtimoiy munosabatlar sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Psixologik bilimlar turlari. Hayotiy psixologiya.
2. Psixologik bilimlar turlari. San'atda psixologik bilimlar
3. Psixologik bilimlar turlari. Ilmiy psixologiya
4. Psixologik bilimlar turlari. Ijtimoiy psixologiya
5. Psixologik bilimlar turlari. Parapsixologiya
6. Psixologik bilimlar tarixi
7. Psixologiyadagi dastlabki mashhur psixologlar

| | |
|---|---|
| | 8. Psixologiya metodlari<br>9. Kasbiy kamolot tushunchasi<br>10. Psixopatologiyada o'zlashtirilmagan va adaptatsiyalashmagan reaksiyalar.<br>11. Psixoanalizni yaratilishi. Freydning xalqaro g'alabasi.<br>12. Psixologiya metodlari. Modellashtirish metodi.<br>13.«Men konsepsiyasi» va kasb.<br>14. Ta'limda psixologik faoliyat.<br>15. Qadriyatlar tizimida kasbiy faoliyat o'rni.<br>16. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillar (qiziqishlar, layoqat, qobiliyat, insonlarga yordam berish, xizmat qilish burchi, kasbning sotsial nufuzi).<br>17. Psixologiya kasb sifatida<br>18. Psixolog faoliyatining ko'rinishi va sohalari<br>19. Shaxs muammosi va fanning metodologik darajalari<br>20. Zamonaviy psixoanalizning asosiy yo'nalishlari (X. Gartmann, A. Freyd, E. Erikson), ob'ektiv munosabatlar psixologiyasi (M. Klyayn, M.Balint, X. Koxung).<br>21. Tibbiyot sohasida psixologik ish.<br>22. Ijtimoiy munosabatlar sohasida psixologiya<br>23. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya.<br>24. Iqtisod sohasida psixologiya.<br>25. Kadrlarni tanlash va boshqarish psixologiyasi.<br>26. Konsultativ psixologiya.<br>27. Psixolog shaxsi.<br>28. Kasbiy shakllanishning bosqichlari va shart-sharoitlari.<br>29. Psixolog faoliyatini nazorat qiluvchi axloqiy me'yorlari va etik tamoyillar.<br>30. Mashhur psixologlarning hayoti va ijodiy yo'li.<br>31. O'zbekistonda psixologiya fanining qisqacha tarixiy taraqqiyoti.<br>32. Z.Freyd va uning maktabi.<br>33. V.Frankl va uning maktabi.<br>34. E.Fromm va uning maktabi.<br>35. M.Erikson va uning maktabi.<br>36. A.Maslou va uning maktabi<br>37. L.S. Vigotskiy va uning maktabi.<br>38. O'zbekistonda psixologiyaning rivojlanishi.<br>39. O'zbek psixologiyasining namoyondalari. Mustaqillikdan so'ng psixologiyaning rivojlanishi.<br>40. Psixologni kasbiy o'zini anglash xususiyatlari va uni rivojlantirishni shart-sharoitlari.<br>41. Amaliy psixologning axloqiy kasbiy faoliyati asosida yotuvchi asosiy tamoyillar.<br>42. Sport sohasida psixologik ish.<br>43. M.Erikson va uning maktabi.<br>44. A.Maslou va uning maktabi |



| | |
|---|---|
| 3 | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• Psixologiya faning mohiyati, bugungi kundagi mavqei, psixologning asosiy faoliyat turi, kasbiy muhim sifatlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;***<br>• O'zini mutaxassis sifatida ko'rish ehtiyoji, o'zining mehnat faoliyatini samaradorligini mustaqil va xolis baholash hamda turli psixologik muammolarni tahlil eta olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar; |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash va joriy baholash (workshop, loyiha, vazifa/topshiriqlar shaklida), oraliq nazorat (fanning xususiyatidan kelib chiqib, yozma, test yoki og'zaki shaklda), yakuniy nazorat test shaklida amalga oshiriladi. |
| 6 | **VIII. Foydalanadigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yhati:**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Avezov. O.R. " Mutaxassislikga kirish" – "Durdona" .Buxoro- 2021<br>2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". – T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi, 2009.<br>3. Ғозиев Э.Ғ. "Умумий психология". – Т.: Ўқитувчи. 2012.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. N.S.Safayev, N.A.Mirashirova, N.G.Odilova Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma. – T., 2013.<br>2. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". – T, 2008.<br>3. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. "Psixologik xizmat". – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2014.<br>4. Баротов.Ш.Р. Психологик хизмат: Магистрлар учун дарслик. – Т.: "Наврўз" нашриёти, 2018. – 344 б.<br>**Axborot manbalari (saytlar):**<br>5. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>6. www.psychol.ras.ru |

| | |
|---|---|
| | 7. www.psyberia.ru |
| 7 | **Fan dasturi** "Termiz iqtisodiyot va servis universiteti" Kengashining 202__ yil"___" ____dagi __ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan modul uchun mas'ul:**<br><br>**R.N.Alimardanova**- Termiz iqtisodiyot va servis universiteti- Pedagogika va psixologiya kafedrasi v/b dotsenti (PhD).<br><br>**D.Aminova** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti- Pedagogika va psixologiya kafedrasi o`qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br><br>**M.A.Norbosheva** – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti- Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti (PhD).<br><br>**M.D.Sattorova** - Termiz davlat universiteti- Psixologiya kafedrasi v/b dotsenti (PhD). |